

AVERE VA ESSERE FE'LLARINING INGLIZ TILIDAGI HAVE VA TO BE FE'LLARI BILAN UYG'UNLIGI

Xodjiyeva Gulchehra Norovna SAMDCHTI

Ispan italyan kafedrasi o'qituvchisi

Sharipova Maxliyo Nurulla qizi SAMDCHTI

Italyan tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada italyan tili grammatik tizimida muhim o'rin tutuvchi *avere* (“bor bo'lmoq, ega bo'lmoq”) va *essere* (“bo'lmoq”) fe'llarining ingliz tilidagi *have* hamda *to be* fe'llari bilan grammatik jihatdan uyg'unligi yoritilgan. Shuningdek, ularning hozirgi zamondagi tuslanishi, ma'nodagi o'xshashlik va farqlar, birikmalari hamda qo'llanish sohalari misollar orqali izohlanadi.

Kalit so'zlar: avere, essere, have, to be, italyan tili grammatikasi, ingliz tili grammatikasi, yordamchi fe'l, egalik, kesimlik, zamon shakllari, iboraviy fe'llar, sintaksis, morfologiya, semantika, kontrastiv tahlil.

Annotation. This article highlights the grammatical similarities between the Italian verbs *avere* (“to have, to possess”) and *essere* (“to be”) and their English equivalents *have* and *to be*, which play an important role in the grammatical systems of both languages. It also explains, through examples, their present tense conjugation, semantic similarities and differences, common expressions, and fields of usage.

Keywords: avere, essere, have, to be, Italian grammar, English grammar, auxiliary verb, possession, predication, tense forms, phrasal verbs, syntax, morphology, semantics, contrastive analysis.

Italya tili grammatikasi tizimida *avere va essere* fe'llari eng ko'p qo'llaniladigan, ahamiyatli fe'llar sirasiga kiradi. Ular nafaqat mazmun ifodalash uchun asosiy fe'l sifatida, balki zamonaviy grammatik shakllarni hosil qilishda yordamchi fe'l sifatida ham faol qo'llanadi. Ingliz tilida mazkur fe'llarning funksiyalari mos ravishda *have/has va to be (am, is, are)* fe'llari orqali ifodalanadi.

“Avere” fe'lining mazmuni va qo'llanilishi

Avere fe'li o'zbek tilida “ega bo'lmoq”, “bor bo'lmoq” ma'nosida keladi. U biror narsaning mavjudligini ifodalaydi hamda *passato prossimo* kabi zamon shakllarini hosil qilishda yordamchi fe'l sifatida ishlatiladi.

Misol:

Io ho un libro — Menda kitob bor.

Ingliz tilidagi *have/has* fe'li ham xuddi shunday ma'noni bildiradi:

For example:

I have a book — Menda kitob bor.

Hozirgi zamonda tuslanishi:

<i>AVERE</i>	<i>HAVE/HAS</i>
io ho	I have
tu hai	you have
lei/lui ha	he/she/it has
noi abbiamo	we have
voi avete	you have
loro hanno	they have

Avere fe'lining iboraviy qo'llanilishi

Ba'zi holatlarda **avere** fe'li "bor" ma'nosida emas, iboraviy ma'no hosil qiladi:

<i>AVERE</i>	<i>Mazmuni</i>
avere fame	och bo'lmoq
avere sete	Chanqamoq
avere sonno	uxlamoqchi bo'lmoq
avere freddo/caldo	sovuq/issiq bo'lmoq
avere paura	qo'rqmoq
avere ragione/torto	haq bo'lmoq/adashmoq

Ingliz tilida mazkur ma'nolar *have* orqali emas, boshqa fe'llar bilan ifodalanadi:

<i>Inglizcha birikmalar</i>	<i>Mazmuni</i>
have breakfast	nonushta qilmoq
have a shower	dush qabul qilmoq
have a rest	dam olmoq
have fun	Zavqlanmoq
have a good time	maroqli vaqt o'tkazmoq

"Essere" fe'lining mazmuni va qo'llanilishi

Essere italyan tilida "bo'lmoq" ma'nosida keladi va o'zbek tilidagi *–man, –san, –dir* morfologik shakliga mos keladi. U tartibsiz (*irregolare*) fe'l hisoblanadi, shuning uchun uning tuslanishi maxsus yodlanadi.

Misol:

Io sono Samarcanda — Men samarqandlikman.

Ingliz tilidagi mos fe'l — *to be (am, is, are):*

For example:

I am a student — Men talabaman.

Hozirgi zamonda tuslanishi:

ESSERE	TO BE
io sono	I am
tu sei	you are
lui/lei è	he/she/it is
noi siamo	we are
voi siete	you are
loro sono	they are

Tilshunoslik nuqtai nazaridan, bu fe'llarning ingliz tilidagi *have/has va to be* fe'llari bilan funksional jihatdan mosligi o'rganuvchilar uchun o'zlashtirish jarayonini osonlashtiradi. Ingliz tili fonetik va grammatik jihatdan o'ziga xos bo'lsa-da, mazkur fe'llarning semantik vazifalari o'xshashligi taqqoslash imkonini yaratadi. Shu jihatdan qaralganda, tilshunoslikdagi kontrastiv yondashuv italyan va ingliz tillari o'rtasidagi tipologik farqlarni yoritishda samarali vosita hisoblanadi.

Shuningdek, *avere va essere* fe'llarining iboraviy qo'llanilishi nutqning tabiiyligi, stilistik boyligi va pragmatik to'g'riligini ta'minlaydi. Ular orqali insonning fiziologik holati, hissiyotlari, shaxsiy munosabatlari ifodalanadi, bu esa kommunikatsiyada muhim ahamiyatga ega. Ingliz tilida o'xshash holatlar turli konstruksiyalar yordamida berilishi, til o'rganuvchilardan semantik moslashuvchanlikni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. A. Latino, M. Muscolino. "Una grammatica per tutti". Milano: Edizioni Linguistica, 2018. B.
2. Patrizia Guida, Maria Martina. "Ezercitarci". Roma: Edizioni Grammaticali, 2017. B.
3. Ковалев В. Ф., Красова Галина Алексеевна. "Practical Italian Grammar". ИИФРА-М, 2010 г., B.
4. ROHLFS G. Grammatica storica della lingua italiana e dei suoi dialetti. Fonologia. Torino: Giulio Einaudi Ed. s.p.a., 1966.
5. ROHLFS G. Grammatica storica della lingua italiana e dei suoi dialetti. Morfologia. Torino: Giulio Einaudi Ed. s.p.a., 1966.
6. STORIA della lingua italiana. L'italiano nelle regioni. Milano: Garzanti Ed. s.p.a., 1996. Vol. 1, 2.
7. Glossary definitions and examples from Macmillan Essential Dictionary, tex © Bloomsbury Publishing Plc 2003 and © A&C Black Publishers Ltd 2005